Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 11 2026

Probatsiya xizmati faoliyatida jazolarni ijro etiş va mahkumlarni ijtimoiy moslaştirişda idoralararo hamkorlikni takomillaştiriş masalalari

Rahmonov Husniddin Mahmudjon öğli
Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Akademiyasi 3-öquv kurs 329-guruh kursanti

Umaraliyeva Dilşoda Nabijonovna
Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirligi Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasi katta öqituvçisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Özbekiston Respublikasida probatsiya xizmati faoliyatini samarali taşkil etiş, sud tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum qiliş bilan boğliq bölmagan jazolar ijrosini ta’minlaş hamda probatsiya nazoratidagi şaxslarni ijtimoiy moslaştiriş jarayonida idoralararo hamkorlikning ahamiyati tahlil qilingan. Şuningdek, probatsiya faoliyatining normativ-huquqiy asoslari, davlat organlari, mahalliy hokimliklar, bandlik va ijtimoiy himoya organlari, fuqarolarning özini özi boşqariş organlari hamda nodavlat taşkilotlar bilan hamkorlik mexanizmlari örganilgan. Xorijiy davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya va Qozoğiston probatsiya tizimining ilğor tajribasi tahlil qilinib, milliy amaliyotda uçrayotgan taşkiliy, huquqiy va axborot almaşinuvi bilan boğliq muammolar aniqlangan. Yakunda probatsiya xizmati faoliyatida hamkorlik samaradorligini oşirişga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar işlab çiqilgan.

Kalit sözlar: probatsiya xizmati, jazo ijrosi, idoralararo hamkorlik, mahkum, ijtimoiy moslaştiriş, retsidiv jinoyatchilik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, bandlik, axborot almaşinuvi, xorijiy tajriba.

Abstract: This article analyzes the importance of interagency cooperation in effectively organizing the activities of the probation service in the Republic of Uzbekistan, ensuring the enforcement of non-custodial sentences imposed by courts, and facilitating the social reintegration of individuals under probation supervision. It also examines the legal and regulatory framework governing probation activities, as well as cooperation mechanisms involving government agencies, local authorities, employment and social protection bodies, citizens' self-governing bodies, and non-governmental organizations. Furthermore, the article explores best practices in probation systems in foreign countries, particularly the United Kingdom and Kazakhstan, and identifies organizational, legal, and information-sharing challenges encountered in national practice. Finally, the article develops scientific and practical proposals and recommendations aimed at improving the effectiveness of interagency cooperation in the activities of the probation service.

Keywords: probation service, enforcement of sentences, interagency cooperation, convicted persons, social reintegration, recidivism, crime prevention, employment, information exchange, international experience.

KIRIŞ

Bugungi kunda jinoyat-ijroiya tizimini takomillaştiriş, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlaş, şuningdek, jinoyat sodir etgan şaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qiliş masalalari davlat siyosatining muhim yönalişlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ozodlikdan mahrum qiliş bilan boğliq bölmagan jazolarni ijro etiş jarayonida probatsiya xizmatining örni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Probatsiya institutining asosiy mohiyati faqatgina sud tomonidan belgilangan jazo va majburiyatlarning bajarilişini nazorat qilişdan iborat emas. U, eng avvalo, şaxsning qonunga itoatkor xulq-atvorini şakllantiriş, ijtimoiy muammolarini bartaraf etiş, mehnat faoliyatiga jalb qiliş, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarini tiklaş hamda takroriy jinoyat sodir etişining oldini olişga qaratilgan kompleks faoliyatdir.

Mazkur vazifalarni faqat probatsiya xizmatining özi tomonidan töliq amalga oşiriş imkoniyati çeklangan. Çunki probatsiya nazoratidagi şaxslarning muammolari köpinça işsizlik, doimiy yaşaş joyining mavjud emasligi, kasbiy malakaning yetişmasligi, oilaviy nizolar, psixologik muammolar va ijtimoiy muhit bilan boğliq böladi. Şu sababli mazkur jarayonda davlat organlari, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qiluvçi organlar, ta'lim va soğliqni saqlaş muassasalari, iş beruvçilar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining özaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Şu nuqtayi nazardan, probatsiya xizmati faoliyatida idoralararo hamkorlikni taşkil etişning mavjud mexanizmlarini tahlil qiliş, ularning samaradorligini oşiriş va amaliyotda uçrayotgan muammolarga ilmiy asoslangan yeçimlar işlab çiqiş dolzarb hisoblanadi.

METODOLOGIYA VA MUHOKAMA

Özbekiston Respublikasida probatsiya faoliyatining huquqiy asoslari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, Özbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi ÖRQ-938-son «Probatsiya töğrisida»gi Qonuni mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga soluvçi asosiy maxsus qonun hisoblanadi. Uşbu Qonunda probatsiyaning asosiy vazifalari, prinsiplari, probatsiya nazoratini amalga oşiriş tartibi, vakolatli organlarning faoliyati hamda probatsiya nazoratidagi şaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qiliş masalalari belgilangan. Qonunning 3-moddasida probatsiya tuşunçasi muayyan huquqdan mahrum qiliş, majburiy jamoat işlari, axloq tuzatiş işlari va ozodlikni çeklaş jazolarining ijrosini ta'minlaş, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir körsatiş, huquqbuzarliklarning oldini oliş hamda ularni sodir etişga imkon beruvçi sabab va şart-şaroitlarni bartaraf etişga qaratilgan çora-tadbirlar majmui sifatida belgilangan. Mazkur qonunning 4-moddasida qonuniylik, insonparvarlik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hurmat qiliş, tabaqalaştiriş va individual yondaşiş hamda oşkoralik probatsiya faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida mustahkamlangan. Ayniqsa, individual yondaşuv prinsipi muhim ahamiyatga ega. Çunki probatsiya nazoratidagi barça şaxslarga bir xil tarbiyaviy yoki ijtimoiy ta'sir çoralarini qöllaş kutilgan natijani bermaydi. Har bir şaxsning

yoşi, soğliği, oilaviy holati, kasbiy könikmalari, sodir etgan jinoyatining xususiyati va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda alohida yondaşuv talab etiladi.

Özbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi jazolarni ijro etiş tartibi, probatsiya bölinmalarining vakolatlari, mahkumlarning huquq va majburiyatlari hamda tegişli taşkilotlarning jazo ijrosidagi iştirokini belgilaydi. Jumladan, mazkur kodeksning 27-moddasida probatsiya bölinmalarining axloq tuzatiş işlariga hukm qilingan şaxslarni hisobga oliş, jazoni ötaş tartibini tuşuntiriş, jazo şartlariga rioya etilişini tekşiriş va tegişli korxona hamda taşkilotlar tomonidan hukm talablarining bajarilişini nazorat qilişga doir vazifalari belgilangan. Bundan taşqari, 28-modda korxona, muassasa va taşkilotlar ma'muriyatining jazo ijrosini ta'minlaş borasidagi majburiyatlariga bağişlangan. Demak, amaldagi qonunçilik probatsiya xizmatining faoliyatini boşqa taşkilotlar bilan uzviy hamkorlikda amalga oşiriş uçun zarur huquqiy asoslarni şakllantirgan. Biroq qonunçilikda belgilangan vakolatlarning amaliyotda töliq va samarali bajarilişi hamkorlikning taşkiliy mexanizmlari, mas'uliyat taqsimoti, axborot almaşinuvi va natijadorlikni baholaş tizimiga bevosita boğliq.

Probatsiya xizmati faoliyatida idoralararo hamkorlikni bir neçta asosiy yönalişlarga ajratiş mumkin.

Birinçidan, huquqbuzarliklarning oldini oliş va nazoratni ta'minlaş yönalişi. Mazkur yönalişda probatsiya bölinmalari içki işlar organlarining profilaktika inspektorlari, tezkor-qidiruv xizmatlari va boşqa tegişli tuzilmalari bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlikning asosiy maqsadi probatsiya nazoratidagi şaxslarning xulq-atvorini örganiş, sud tomonidan belgilangan çeklov va majburiyatlarga rioya etilişini nazorat qiliş, nazoratdan böyin tovlaş holatlarini aniqlaş hamda yangi jinoyatlarning oldini olişdan iborat.

Ikkinçidan, bandlikni ta'minlaş va kasb-hunarga öqitiş yönalişi. Amaliyotda probatsiya nazoratidagi şaxslarning muayyan qismi doimiy iş joyiga ega emasligi yoki mehnat bozorida talab qilinadigan kasbiy könikmalarga ega emasligi ularning ijtimoiy moslaşuviga salbiy ta'sir körsatişi mumkin. Şu sababli hududiy bandlik organlari, kasb-

hunarga öqitiş markazlari, korxona va taşkilotlar bilan hamkorlikda ularni işga joylaştiriş, kasbiy tayyorgarlikdan ötkaziş va tadbirkorlik faoliyatiga yönaltiriş muhim ahamiyatga ega.

Uçinçidan, ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam körsatiş yönalişi. Probatsiya nazoratidagi ayrim şaxslar oilaviy nizolar, ijtimoiy ajraliş, ruhiy zöriqiş, zararli odatlarga moyillik yoki boşqa ijtimoiy muammolarga duç kelişi mumkin. Bunday holatlarda tegişli ijtimoiy xizmatlar, tibbiyot muassasalari, psixologlar va mahalla vakillari bilan hamkorlik qiliş talab etiladi.

Törtinçidan, oilaviy va jamoatchilik bilan işlaş yönalişi. Mahalla fuqarolar yiğinlari, oila va xotin-qizlar masalalari böyiça mutasaddilar hamda jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik şaxsning ijtimoiy muhitini yaxşilaş, oilaviy munosabatlarni tiklaş va ijobiy xulq-atvorni şakllantirişga xizmat qiladi.

Şu jihatdan, idoralararo hamkorlikni faqatgina ma’lumot almaşiş yoki qöşma tadbirlar ötkaziş bilan çeklab qöymaslik lozim. Hamkorlik har bir probatsiya nazoratidagi şaxsning individual muammolarini aniqlaş va ularni bartaraf etişga qaratilgan aniq natijador mexanizmga aylanişi zarur.

Probatsiya tizimini rivojlantirişda xorijiy davlatlar tajribasini örganiş milliy amaliyot uçun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniya tajribasi.

Buyuk Britaniyada probatsiya faoliyatida idoralararo hamkorlikning muhim mexanizmlaridan biri Multi-Agency Public Protection Arrangements (MAPPA) hisoblanadi. Mazkur mexanizm, asosan, jamoat xavfsizligiga yuqori xavf tuğdirişi mumkin bölgan zöravonlik va jinsiy jinoyatlar sodir etgan şaxslar ustidan nazoratni taşkil etişga qaratilgan. MAPPA doirasida politsiya, probatsiya xizmati va jazoni ijro etiş muassasalari özaro hamkorlik qiladi. Zarur hollarda mahalliy hokimiyat, ijtimoiy xizmatlar va boşqa vakolatli taşkilotlar ham jalb etiladi. Uşbu tizimning muhim jihati şundaki, xavf darajasi yuqori bölgan şaxslar böyiça tegişli idoralar özaro axborot almaşadi, xavflarni baholaydi va yagona boşqaruv rejasini işlab çiqadi. Buyuk Britaniya tajribasidan kelib çiqib,

Özbekistonda ham yuqori xavf guruhiga kiruvçi probatsiya nazoratidagi şaxslar bilan işlaş böyiça maxsus idoralararo işçi guruhlar faoliyatini takomillaştiriş maqsadga muvofiq.

Qozoğiston tajribasi.

Qozoğiston Respublikasida probatsiya faoliyati «Probatsiya töğrisida»gi qonun hamda Jinoyat-ijroiya kodeksi asosida taşkil etilgan. Qozoğiston tajribasining e'tiborli jihati probatsiya nazoratini ijtimoiy-huquqiy yordam bilan birgalikda amalga oşirişga qaratilganidir. Mazkur tizimda probatsiya xizmatiga hisobga olingan şaxsning yaşaş joyi, soğliği, ma'lumot darajasi va bandlik holatini aniqlaşga alohida e'tibor qaratiladi. Voyaga yetmaganlar bilan işlaşda esa ularning yoş xususiyatlari, oilaviy muhiti, vasiylik va homiylik organlari hamda bolalar huquqlarini himoya qiluvçi taşkilotlar bilan hamkorlik qiliş muhim örin egallaydi. Uşbu tajriba Özbekiston şaroitida ham probatsiya nazoratidagi şaxslarni faqat huquqiy nazorat obyekti sifatida emas, balki individual ijtimoiy yordamga muhtoj şaxs sifatida baholaş zarurligini körsatadi.

Xalqaro standartlar.

Birlaşgan Millatlar Taşkilotining 1990-yil 14-dekabrdagi 45/110-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Ozodlikdan mahrum qiliş bilan boğliq bölmagan çoralar böyiça minimal standart qoidalari (Tokio qoidalari) ham probatsiya faoliyatining muhim xalqaro asoslaridan hisoblanadi. Mazkur qoidalarda jinoyat sodir etgan şaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda tuzatiş, jamoatchilik iştirokini kengaytiriş va şaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini şakllantirişga alohida e'tibor qaratilgan. Şuningdek, Yevropa Kengaşining 2010-yil 20-yanvardagi CM/Rec(2010)1-sonli Probatsiya qoidalarida probatsiya organlarining boşqa davlat va nodavlat taşkilotlari bilan hamkorlik qilişi, şaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olişi hamda takroriy jinoyatchilikni kamaytirişga yönaltirilgan faoliyatni amalga oşirişi belgilangan. Xorijiy tajriba va xalqaro standartlarning tahlili şuni körsatadiki, samarali probatsiya tizimi nazorat, ijtimoiy yordam, xavflarni baholaş va idoralararo mas'uliyatning özaro uyğunligiga asoslanadi.

Amaldagi qonunçilik va xorijiy tajriba tahlili asosida probatsiya xizmati faoliyatida idoralararo hamkorlikni yanada takomillaştirişni talab qiluvçi bir qator taşkiliy va amaliy muammolarni ajratib körsatiş mumkin.

Birinçi muammo – idoralararo hamkorlikda mas'uliyatning aniq taqsimlanmaganligi. Ayrim vaziyatlarda probatsiya nazoratidagi şaxsning bandligini ta'minlaş, ijtimoiy yordam körsatiş yoki boşqa muammolarini hal etiş böyiça bir neçta taşkilot iştirok etsa-da, yakuniy natija uçun mas'ul bölgan subyektning vazifasi yetarliça aniq belgilanmasligi mumkin. Natijada taşkilotlar örtasida murojaat va ma'lumot almaşiş jarayoni mavjud bölsa-da, muammoning amaliy yeçimi keçikadi.

Ikkinçi muammo – axborot almaşinuvidagi taşkiliy va texnik tösiqlar. Probatsiya xizmatining samarali faoliyati şaxsning sudlanganligi, bandligi, yaşaş joyi, oilaviy va ijtimoiy holati töğrisidagi zarur ma'lumotlardan qonuniy va tezkor foydalaniş imkoniyatiga boğliq. Biroq turli idoralarning axborot tizimlari örtasidagi integratsiya yetarli darajada işlamasa, bir xil ma'lumotlarni qayta-qayta söraş, hujjatlarni qölda yuboriş va ma'lumotlarni yangilaşda keçikişlar yuzaga kelişi mumkin.

Uçinçi muammo – işga joylaştiriş jarayonining natijadorligi. Probatsiya nazoratidagi şaxsni işga joylaştiriş böyiça yöllanma berilişi uning amalda doimiy iş bilan ta'minlanganini anglatmaydi. Iş beruvçilarning ayrimlarida sudlanganlik tarixi mavjud şaxslarni işga qabul qilişga nisbatan ehtiyotkorlik mavjud bölişi mumkin. Şuningdek, kasbiy malaka, tajriba va mehnat bozoridagi talabning mos kelmasligi ham işga joylaştiriş jarayoniga salbiy ta'sir körsatadi.

Törtinçi muammo – individual ijtimoiy moslaştiriş dasturlarining yetarliça natijador bölmasligi. Har bir şaxsning jinoyat sodir etişiga olib kelgan omillar turliça böladi. Şu sababli barça şaxslarga bir xil profilaktik suhbat, uçraşuv yoki tarbiyaviy tadbirlarni taşkil etiş yetarli natija bermasligi mumkin. Şaxsning ehtiyoji va xavf darajasini hisobga olmasdan taşkil etilgan tadbirlar köpinça rasmiyatchilik bilan çeklanib qoliş xavfini yuzaga keltiradi.

Beşinçi muammo – jamoatchilik bilan işlaşda tizimlilikning yetişmasligi. Mahalla va boşqa jamoat institutlari bilan hamkorlikni faqat alohida uçraşuvlar yoki tadbirlar ötkaziş bilan çeklaş mumkin emas. Şaxsning jamiyatga moslaşuvi uzoq muddatli va izçil yondaşuvni talab qiladi.

Oltinçi muammo – hamkorlik samaradorligini baholaş mezonlarining takomillaştirişga ehtiyoji. Hamkorlik natijalarini faqat ötkazilgan tadbirlar, yuborilgan xatlar yoki işga yönaltirilgan şaxslar soni bilan baholaş töliq natijani aks ettirmaydi. Bunda şaxsning işga joylaşib, iş faoliyatini davom ettirişi, ijtimoiy muammolarining bartaraf etilişi, sud tomonidan belgilangan majburiyatlarga rioya qilişi va takroriy jinoyat sodir etmasligi kabi körsatkiçlar ham hisobga olinişi lozim.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etiş maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suriş mumkin.

Birinçidan, hududiy idoralararo hamkorlikning yagona algoritmini işlab çiqiş. Har bir probatsiya nazoratidagi şaxs hisobga olinganidan söng uning ijtimoiy holatini örganiş, mavjud muammolarini aniqlaş va tegişli taşkilotlarga yönaltiriş böyiça yagona tartibni joriy etiş lozim. Mazkur algoritmda har bir taşkilotning vazifasi, bajariş muddati, mas’ul xodimi va natijani tasdiqlaş tartibi aniq belgilanişi kerak.

Ikkinçidan, individual ijtimoiy moslaştiriş rejasini takomillaştiriş. Probatsiya nazoratidagi har bir şaxs uçun uning huquqiy, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy holatidan kelib çiqib individual reja işlab çiqiş taklif etiladi. Uşbu rejada:

- bandlik va kasb-hunarga öqitiş;
- huquqiy va psixologik maslahatlar;
- oilaviy munosabatlarni tiklaş;
- zarur tibbiy va ijtimoiy yordam;
- huquqbuzarliklarning oldini oliş;
- xulq-atvorni ijobiy tomonga özgartirişga qaratilgan çora-tadbirlar nazarda tutilişi lozim.

Uçinçidan, idoralararo axborot almaşinuvi tizimini rivojlantiriş. Probatsiyaga oid axborot tizimini manfaatdor davlat organlarining tegişli axborot resurslari bilan qonunçilik talablariga muvofiq integratsiya qiliş zarur. Bunda ma'lumotlardan foydalaniş vakolatlari, şaxsga doir ma'lumotlarni himoya qiliş, axborot xavfsizligi va foydalaniş tarixini qayd etiş talablari qat'iy belgilanişi lozim.

Törtinçidan, yuqori xavf guruhidagi şaxslar bilan işlaşning alohida mexanizmini joriy etiş. Buyuk Britaniyaning MAPPA tajribasidan kelib çiqib, takroriy yoki oğir jinoyat sodir etiş xavfi yuqori deb baholangan şaxslar böyiça probatsiya, içki işlar, ijtimoiy xizmatlar va boşqa tegişli idoralar iştirokida individual xavflarni boşqariş rejalarini işlab çiqiş maqsadga muvofiq. Bunday yondaşuv barça probatsiya nazoratidagi şaxslarga emas, balki asoslantirilgan xavf baholaş natijasida alohida e'tibor talab qiladigan holatlarga nisbatan qöllanişi kerak.

Beşinçidan, iş beruvçilar bilan hamkorlikni rağbatlantiriş. Probatsiya nazoratidagi şaxslarni işga qabul qiluvçi korxona va taşkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiriş, ularga kasbiy tayyorgarlik va iş joyida moslaşiş imkoniyatlarini yaratiş lozim. Bunda işga joylaştirişning son körsatkiçlari bilan bir qatorda iş joyida saqlanib qoliş va mehnat faoliyatining barqarorligi ham baholanişi kerak.

Oltinçidan, jamoatchilik institutlari iştirokini kengaytiriş. Mahalla, nodavlat notijorat taşkilotlari, volontyorlar, jamoat birlaşmalari va boşqa fuqarolik jamiyati institutlarini probatsiya nazoratidagi şaxslarni ijtimoiy moslaştiriş jarayoniga jalb etiş lozim. Bunda jamoatchilik iştiroki qonunçilikda belgilangan vakolatlar, maxfiylik va inson huquqlariga rioya etiş asosida taşkil qilinişi zarur.

Yettinçidan, hamkorlik samaradorligini natijadorlik körsatkiçlari asosida baholaş. Probatsiya xizmati va hamkor taşkilotlar faoliyatini baholaşda quyidagi mezonlardan foydalaniş maqsadga muvofiq:

- doimiy işga joylaştirilgan şaxslar uluşi;
- kasb-hunar öqitiş dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlaganlar soni;
- ijtimoiy muammolari bartaraf etilgan şaxslar uluşi;

- sud tomonidan belgilangan majburiyatlarga rioya etiş darajasi;
- takroriy huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlari dinamikasi;
- idoralararo topşiriqlarning belgilangan muddatda bajarilişi.

Uşbu körsatkiçlar asosida hududlar kesimida hamkorlik samaradorligini muntazam tahlil qilib boriş mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, probatsiya xizmati faoliyatida idoralararo hamkorlikni samarali taşkil etiş jazolar ijrosini ta'minlaş, huquqbuzarliklarning oldini oliş va mahkumlarni jamiyatga qayta integratsiya qilişning muhim şartlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar şuni körsatadiki, probatsiya faoliyatining natijadorligi faqat nazorat tadbirlarining soni bilan emas, balki probatsiya nazoratidagi şaxsning ijtimoiy holatida yuz bergan ijobiy özgarişlar bilan ham baholanişi kerak.

Xorijiy tajriba, xususan, Buyuk Britaniyaning MAPPA mexanizmi va Qozoğistonning ijtimoiy-huquqiy yordamga asoslangan probatsiya amaliyoti idoralararo hamkorlikning tizimli va individual yondaşuvga asoslanişi zarurligini körsatadi.

Şu munosabat bilan quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga keliş mumkin:

1. Probatsiya xizmati va hamkor taşkilotlar örtasidagi vakolat hamda mas'uliyatni aniq belgilaş orqali idoralararo hamkorlikning samaradorligini oşiriş zarur.
2. Probatsiya nazoratidagi har bir şaxs uçun individual ijtimoiy moslaştiriş rejasini işlab çiqiş va uning ijrosini muntazam baholab boriş lozim.
3. Probatsiyaga oid axborot tizimining imkoniyatlarini kengaytiriş va idoralararo ma'lumot almaşinuvini takomillaştiriş zarur.
4. Yuqori xavf guruhiga mansub şaxslar bilan işlaşda idoralararo xavflarni baholaş va boşqariş mexanizmlarini joriy etiş maqsadga muvofiq.
5. Probatsiya faoliyati samaradorligini baholaşda faqat miqdoriy körsatkiçlarga emas, balki şaxsning ijtimoiy moslaşuvi, bandligi va takroriy jinoyatchilikning oldini oliş natijalariga ustuvor ahamiyat beriş lozim.

Şunday qilib, probatsiya xizmatining kelgusidagi rivojlanişi nazorat va ijtimoiy yordam mexanizmlarining özaro uyğunligi, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining

mas’uliyatli hamkorligi hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanişga bevosita boğliqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 2023-yil 30-aprel.
2. Özbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi ÖRQ-938-son «Probatsiya töğrisida»gi Qonuni.
3. Özbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. 1997-yil 25-aprel.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi «Özbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlaş va uni amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida» gi PF-27-son farmoni
5. Özbekiston Respublikasi Içki işlar vazirining 2025-yil 19-iyuldagi «Probatsiya nazoratidagi şaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oşiriş tartibi töğrisidagi yöriqnomani tasdiqlaş haqida»gi 403-son buyruği
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunçiligini tubdan takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida»gi PQ-4006-son qarori
7. United Nations Standard Minimum Rules for Non-custodial Measures (The Tokyo Rules). United Nations General Assembly Resolution 45/110, 14 December 1990.
8. Council of Europe. Recommendation CM/Rec(2010)1 of the Committee of Ministers to member states on the Council of Europe Probation Rules. 20 January 2010.
9. Ministry of Justice, United Kingdom. Multi-Agency Public Protection Arrangements (MAPPA): Guidance. Updated 27 February 2024.
10. Criminal Justice Act 2003. United Kingdom.
11. Penal Execution Code of the Republic of Kazakhstan.
12. Закон Республики Казахстан «О пробации» от 30 декабря 2016 года.
13. Özbekiston Respublikasi qonunçilik ma’lumotlari milliy bazasi – https://lex.uz
14. United Nations Office on Drugs and Crime – https://www.unodc.org
15. Ministry of Justice of the United Kingdom- https://www.gov.uk/government/organisations/ministry-of-justice